

## ILK XRESTOMATIYALARDA ALISHER NAVOIY IJODIDAN PARCHALAR

Ozoda Tohirova TOJIBOYEVA

Doktor PhD, dotsent

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

## ОТРЫВКИ ИЗ ТВОРЧЕСТВА АЛИШЕРА НАВОИ

### В ПЕРВЫХ ХРЕСТОМАТИЯХ

Озода Тахировна ТАДЖИБОЕВА

Доцент, PhD

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

## EXCERPTS FROM THE WORK OF ALISHER NAVOI IN THE FIRST CHRESTOMATS

Ozoda Tahirovna TAJIBAEVA

Associate Professor, PhD

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan [ozoda@navoiy-uni.uz](mailto:ozoda@navoiy-uni.uz)

UDC (УО'К, УДК): 82.091

For citation (iqtibos keltirish uchun,  
для цитирования):

Tojiboyeva O. T. Ilk xrestomatiyalarda Alisher Navoiy ijodidan parchalar.//O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 6 (53). — B. 287-296.

<https://doi.org/10.36078/1704359248>

Received: October 25, 2023

Accepted: December 17, 2023

Published: December 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Annotatsiya.** O'tgan asrlar mobaynida shoir va yozuvchilarining asarlari turli xil to'plam, majmua va xrestomatiya shaklida kitobxonlarga tanishtirib borilgan. O'tgan asrlardagi adabiy merosni zamon kitobxonlariga yetkazish maqsadida olimlar xrestomatiyalarda o'sha adibning tarjimayi holi va asarlaridan parchalar berishgan. Bu tajriba dunyo adabiyotida keng tarqalgan bo'lib, ular bir til ichida yoki boshqa millat vakillari uchun mo'ljallab tuzilgan. Sharqshunos olim I. N. Beryozin tomonidan tuzilgan "Turkiy xrestomatiya" kitobi rus va boshqa millat sharqshunoslari turkiy adabiyot namunalarini tanishtirgan dastlabki manbalardan biri sanaladi. I. Beryozin xrestomatiyani tuzish uchun turkiy tilli adiblarning Rossiya kutubxonalaridagi qo'lyozma nusxalaridan foydalanadi. Har bir asarni eski o'zbek yozuvidagi matnni beradi. Alisher Navoiyning asarları manbalari asosida olingan parchalar ham xrestomatiyadan o'rın olgan. Maqolada Navoiy asarlaridan olingan parchalarning berilish holati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** majmua; to'plam; xrestomatiya; qo'lyozma manba; matn; tarjima.

**Аннотация.** За прошедшие столетия произведения поэтов и писателей были представлены читателям в виде различных сборников и хрестоматий. Чтобы донести до современного читателя литературное наследие прошлых столетий, ученые приводили в хрестоматиях отрывки из биографии и творчества писателей. Книга «Турецкая хрестоматия», составленная ученым-востоковедом И. Н. Березиным, считается одним из первых источников, знакомящих русских и других востоковедов с образцами турецкой литературы. Для составления своей

хрестоматии Березин использует рукописные копии тюркоязычных писателей из российских библиотек. Текст каждого произведения он приводит в староузбекской письменности. В хрестоматии также включены отрывки, основанные на источниках произведений Алишера Навои. В статье анализируется трансляционный статус отрывков из произведений Навои.

**Ключевые слова:** собрание; коллекция; хрестоматия; рукописный источник; текст; перевод.

**Abstract.** Over the past centuries, the works of poets and writers have been presented to readers in the form of various collections, and anthologies. To convey to the modern reader the literary heritage of past centuries, scientists have cited excerpts from the biography and work of this writer in anthologies. The book "Turkish Reader," compiled by the orientalist scholar I. N. Berezin, is considered one of the first sources introducing Russian and other orientalists to examples of Turkish literature. To compile his anthology, Berezin uses handwritten copies of Turkic-speaking writers from Russian libraries. He gives the text of each work in Old Uzbek writing. The anthology also includes excerpts based on the sources of Alisher Navoi's works. The article analyzes the translational status of excerpts from Navoi's works.

**Keywords:** collection; collection; reader; handwritten source; text; translation.

**Kirish.** Qadimdan asarni mualliflardan tashqari holatlarda kitobxonlarga taqdim etishning turli usullari qo'llanib kelingan. Sharq adabiyotida shoirlarning ijod namunalari kitobxon didi va talabiga monand terma devon shaklida taqdim etilgan. Mumtoz adabiyotda bir to'plamning ichida ko'plab shoirlar ijodi bilan tanishtirish vazifasini tazkira janriga mansub asarlar bajargan. Tazkira tuzuvchilari shoirlar ijodini ta'riflash jarayonida o'zlarining adabiy-tanqidiy yondashuvlari va tarjimonlik mahoratini ham namoyish etib borganlar. Mazkur asarlar, odatda, bir tilli yoki turkiy-forsiy tilli o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, keyinchalik o'zga tilli millat vakillariga ham forsiy, turkiy adabiyotni yetkazish ehtiyoji yuzaga keldi. Albatta, boshqa millatni tanish ham uning adabiyoti, madaniyati, tafakkurini o'rganishdan boshlanadi. Shu maqsadda o'sha millatga mansub eng mashhur, badiiyati baland asarlar tarjima qilingan. Keyingi asrlarda mohiyatan chuqur, timsollar olami turfa, shaklan va mazmunan go'zal bo'lgan Sharq adabiyoti g'arbliklar e'tiborini tobora torta boshladidi. G'arbni Sharq adabiyoti bilan tanishtiruvchi majmular, to'plamlar, xrestomatiyalar ilk bora fransuz, ingliz, nemis, venger, rus olimlari tomonidan tuzildi. Turkiy-forsiy, turkiy lug'atlar, Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan "Abushqa", "Sangloh" va boshqa ko'plab lug'atlarning Yevropa olimlari tomonidan kengroq o'rganilishi, nashrha tayyorlanishi ham ana shu tilni bilish va adabiyotlarini mutolaa qilish, umuman, adabiyot orqali Sharqni o'rganish ehtiyoji natijasida ham ommalashgani ma'lum.

**Asosiy qism.** XIX asrdan e'tiboran xorijlik olimlar ochilmagan qo'riq singari qo'lyozmalarda yotgan manbalarni o'rganish va ularni nashr qilish ishlariga jiddiy sa'y-harakat qildilar. Kitoblarining

qanday shaklda, qay tartibda tuzilgan bo‘lishiga qaramay, barchasida Sharq adabiyoti, tarixi bo‘yicha batafsil ma’lumot berishga intildilar. Masalan, Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug‘atlarda dastlab Navoiy hayoti va ijodi, uning qaysi davrda yashagani, adabiy, ijtimoiy-siyosiy muhiti, asarlari, so‘ng bu lug‘atni tayyorlagan shaxsning faoliyati, qaysi asarlarni asos qilib olgani, qo‘lyozma nusxalari, so‘zning ma’nosi, tarjimasi, o‘z tilidagi shakli va ingliz yo fransuz tilidagi izohi kabi to‘liq ma’lumotlarni taqdim etishgan. Hatto bibliografik xarakterdagi kataloglar ham asar tavsifidan ortiqcha tarzda ijodkor biografiyasi va tarixiy ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan. Olimlar imkon qadar ko‘proq ma’lumot berishga intilgan. Qo‘lyozma manbalar asosida tayyorlangan to‘plamlar, majmualar, xrestomatiyalar ham ana shunday katta mehnat va chuqrizlanishlar mahsulidir.

Fransuz olimi Bartelemi d’Erbelo (1625–1695) tomonidan tuzilgan va shogirdi Antuan Golland tomonidan 1697-yili nashr etilgan “Sharq kutubxonasi yoxud universal lug‘at” ensiklopediyasi Yevropani Sharq bilan tanishtirgan dastlabki ensiklopediya, lug‘at kitobdir (6). Kitobdan Sharqqa oid 8600ta maqola o‘rin olgan. Keyinchalik bu ishlar fransuz olimi Silvestr de Sasi (1758–1838) tomonidan davom ettirildi. Shu maktab davomchisi Etenn-Mark Katrmer (1782–1857) 1841-yili Sharq klassik adabiyoti bo‘yicha xrestomatiya nashr qilib, unga turkiy adabiyotdan namunalar, jumladan, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Tarixi muluki ajam” asarlaridan parchalar kiritadi (9). Mazkur nashr Parijda saqlanayotgan qo‘lyozmalar asosida tayyorlangan bo‘lib, yevropalik olimlar uchun Sharq adabiyotini o‘rganishda tayanch manba bo‘lib xizmat qilgan. Nemis olimi Martin Xartmann (1851–1918) o‘zi tuzgan “Chig‘atoy tili” (1902) darsligida Navoiyning 3ta g‘azali va shoirning turli g‘azallaridan saralab olingan 57 baytni, “Mahbub ul-qulub”dan ikkita parchani eski o‘zbek yozuvida beradi va nemischa tarjimasini ham ilova qiladi (10). Venger sayyohi German Vamberi (1832–1913) ham turkiy adabiyot namunalaridan to‘plib, xrestomatiya tuzadi. Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari va “Farhod va Shirin” dostonidan eski o‘zbek yozuvida parchalar va ularning nemischa tarjimalarini kiritib, nashr qiladi. Shuningdek, “Ey ko‘ngul, kelkim, ikov bo‘lub nigore ko‘zlali, /Sarv qadde istabon siymin uzore ko‘zlali”, “Ey, hamd o‘lub mahol fasohat bila sanga, / Andoqli, qurbi taqvovu toat bila sanga”, “Yordin ayru ko‘ngul mulkedurur sulton yo‘q, / Mulkkim sulton yo‘q, jismedururkim, joni yo‘q” matlasi bilan boshlanuvchi g‘azallarini eski o‘zbek yozuvida berib, ularning ma’nosini nemis tilida izohlaydi (11). Mazkur darslik, xrestomatiyalar turkologiya ilmining rivojida muhim o‘rin tutdi.

Bu davrda rus ilm-fanidagi ko‘p tillilik ingliz, fransuz, nemis tilidagi yangiliklarni o‘rganishga keng yo‘l ochdi. Yevropa kutubxonalari singari Rossiya fondlari, xususan, Sankt-Peterburg shahridagi fondlarda saqlanayotgan turkiy va forsiy tildagi qo‘lyozmalar tayyor tadqiqot ob‘yekti bo‘lib xizmat qildi. Ularni ilk bora kataloglashtirgan B.A.Dorn, lug‘atlarni nashrga tayyorlagan

V.V.Velyaminov-Zernov va boshqa ko‘plab rus olimlari o‘z ishlarini Rossiya fondlaridagi manbalar asosida olib borgan va tayyorlagan edilar.

Turkiy adabiyot namunalaridan ilk bor xrestomatiya tuzib, rus va boshqa xalqlarga tanishtirgan olim Ilya Nikolayevich Beryozin hisoblanadi (1818–1896). I. N. Beryozinning “Turkiy xrestomatiya”si serqirra olimning ko‘p yillik izlanishlari mahsulidir. Shu o‘rinda olimning turkologiya rivojiga qo‘sghan hissasini e’tirof etish maqsadga muvofiq. Asli qozonlik bo‘lgan olim Sankt-Peterburg universitetida doktorlik dissertatsiyasini (1864) yoqlagan. Qozon (1846–1855), Sankt-Peterburg universitetlari (1855–1896) professori, Parijdagi Osiyo jamiyatni a’zosi (1849) sifatida faoliyat yuritgan. Olimning ilmiy faoliyatida turkologiya sohasi alohida o‘rin tutadi. Jumladan, turk tili, fors tili grammatikasi, sayohatnomalar, turk maqollari, xonliklar yorlig‘i kabi ko‘plab mavzulardagi yigirmaga yaqin kitoblari rus va fransuz tillarida chop etilgan. Ikki jildlik “Sharq tarixchilari kutubxonasi”ga (1850–1851) Rashididdinning “Jome’ ut-tavorix” va Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarlarini tarjima va izohlari bilan tayyorlab, kiritgan. Olim “Sankt-Peterburg kutubxonasi”dagi turk-tatar qo‘lyozmalari tavsifi” (1847) nomli maqolasida Saltikov-Shedrin kutubxonasi Navoiy asarlari uchun tuzilgan “Abushqa” lug‘atining qo‘lyozmasini tavsiflaydi. I.Beryozin o‘zi tahrir qilib nashrha tayyorlagan ulkan hajmdagi — o‘nolti jildlik (1872–1879) “Rus qomusiy lug‘ati”da Alisher Navoiy haqida ham qisqa ma’lumot berib o‘tadi: “Alisher yoki Mir Alisher, eng yaxshi chig‘atoj adibi va davlat arboblaridan biri (1500). Mir Alisherning yozuvchi sifatida asosiy fazilati shundaki, chig‘atoj yoki sharqiy turkcha tilga yangidan ishlov berdi, uning ko‘p sonli asarlari shu tilda bitilgan” (8, 522). Mazkur ma’lumot qisqa bo‘lishiga qaramay, XIX asrdayoq Alisher Navoiy haqidagi ma’lumotlar rus xalqining ko‘p jildlik qomusiy lug‘atidan o‘rin olgani e’tiborga loyiqdir.

Olimning 1857-yili o‘zbek adabiyoti namunalaridan tuzilgan “Turkiy xrestomatiya” kitobi Rossiyada tuzilgan ilk xrestomatiya sifatida qadrlanadi (5). Garchi olim matnni ko‘chirishda ayrim xatoliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa-da, hozirga qadar rus sharqshunosligining ilk manbalarini qatorida o‘rganiladi.

I. N. Beryozin xrestomatiyani tuzishda Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi Osiyo muzeyi va Davlat xalq kutubxonasi qo‘lyozmalaridan foydalangan. Kitobning kirish qismida qo‘lyozmalar manbasi tavsiflangan. Har bir asardan olingan parcha o‘sha yozuvda, asliga muvofiq berilgan. Turkiy qo‘lyozmalar nasta’liq xatida yozilib, matn tagida ularning boshqa manbalaridagi farqlari rus tilida qisqa izohlangan. Biroq boshqa xrestomatiyalardan farqli o‘laroq matnlarning tarjimalari va kengroq izohlari berilmagan. Ya’ni I. Beryozin xrestomatiyani tuzishda asarlardan parchalarni qo‘lyozmalaridan ko‘chirgan, qiyin so‘zlarni boshqa nusxalari bilan qiyosiy tekshirgan. Asar muallifi, asarning o‘zi, qiyin so‘zlarning izohi va tarjimasini berib o‘tmagan, matnni

shundayligicha kitobxonga taqdim etgan. Aksariyat fransuz, nemis, ingliz olimlarining xrestomatiyalarida shunday holat kuzatiladi.

Xrestomatiyada Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Vaqfiya”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Munshaot”, “Mahbub ul-qulub”, “Xamsa” asarlaridan parchalar va lirk she’rlaridan namunalar berilgan. Turkiy adabiyot namunalari uyg‘ur yozuvidagi matnlardan so‘ng o‘rin olgan. Dastlab “Majolis un-nafois”dan parcha Sankt-Peterburg Osiyo muzeyi va xalq kutubxonasi dagi ikki qo‘lyozma asosida eski o‘zbek yozuvida ko‘chirilgan, izohlarda har ikki qo‘lyozmada yo‘q o‘rinlar qayd etilgan (5, 146–161). “Majolis un-nafois”dan olingan parcha uchinchi majlis bilan boshlanadi: “Alar zikridakim, holo zamon sahoifida moiniy abkori alarning daqiq tab’lari hullaboflig‘idin nazm libosi kiyadur, nazm libosi alarning amiyq zihnlari mo‘y shikoflig‘idin san’at va salosat naqsh va nigore topadurkim, ba’zining mulozamatig‘a musharraf va sarbaland va ba’zining musohabatidin xushnud va bahramanddurbiz” (1, 65).

Alisher Navoiy asarlarining mukammal nashri hisoblangan yigirma jildlik nashrida matnda yozilgan *moiniy*, *salosat* so‘zлари xrestomatiyada *maoniy*, *salolat* shaklida yozilgan. Olim ikkilangan o‘rinlarida qo‘lyozmaning Osiyo muzeysi dagi nusxasida qanday ekanligini iqtibosda qayd etib borgan. Shoirlarni berishda qaysi prinsip asosida saralab olgani matnni tekshirib bo‘lgach ayon bo‘ladi. Aynan asardan uchinchi majlisning tanlab olinganiga ham e’tibor qaratsak, olim Navoiyga zamondosh shoirlarni va bu bilan XV asr adabiy muhiti haqida ma’lumot berishni ko‘zlagan bo‘lishi mumkin.

Uchinchi majlis avvalida keluvchi Mavlono Abdurahmon Jomiy va Shayxim Suhayliy ta’rifi qoldirilib, to‘g‘ri Sayfiy Buxoriy ta’rifidan boshlangan: “Mavlono Sayfiy — buxorolig‘dur, andin Hiriy shahrig‘a keldi va aksari kutubi mutadovilotni ko‘rdi va tahsil asnosida nazmg‘a mashg‘ul bo‘ldi. Andoqki she’ri shuhrat tutti va masal tariyqin bag‘oyat yaxshi aytti” (1, 67) jumlasida *she’ri* so‘zi tushib qolgan. Albatta, birgina so‘zning tushib qolishi katta ma’no yo‘qolishiga olib kelmagan, undan oldingi jumla nazmga ishora qilib turibdi. Demak, olim ko‘chirgan matnlarda turli farqlar borligi kuzatiladi.

Sayfiy Buxoriydan so‘ng berilgan Mavlono Osafiy qalamiga mansub she’rni ko‘rib chiqamiz:

*Yuz balolar ko ‘rdum, ul oromi jondin ko ‘rmadim,  
Ikki ko ‘zumdin yomonlik ko ‘rdum, ondin ko ‘rmadim* (1, 68).

Xrestomatiyada esa quyidagicha berilgan:

*Bu balolar ko ‘zdin ul oromi jondin ko ‘rmadim,  
Ikki ko ‘zumdin yamonliq ko ‘rdum, ondin ko ‘rmadim* (5, 148).

Matnda *yuz balolar ko ‘rdum* — *bu balolar ko ‘zdin* shaklida xato berilgan. So‘zning o‘zgarib ketishi birinchi misradagi ma’noning buzilishi va yaxshi anglanmasligiga olib kelgan. Mavlono Hasanshohdan keyin berilgan Mavlono Muzhir haqidagi matn

to‘g‘ri ta’rifdan boshlanadi, ism berilmagan va odatdagি yangи ijodkor ta’rifi boshlanganini bildiruvchi ayirma chiziq bilan ham ajratilmagan. Natijada, Mavlono Muzhirga tegishli matn qo‘sib yuborilgани учун ta’riflar Mavlono Hasanshohga tegishli degan tasavvur uyg‘otadi. Mavlono Muzhirdan keyin keluvchi Mavlono Shomiy xrestomatiyada Mavlono Shohiy deb berilgan. Olim ayrim qiyin so‘zlarga belgi qo‘yib, matn ostida boshqa qo‘lyozmada ham borligini eslatib o‘tadi.

Umuman, xrestomatiyada shoirlar ta’rifi quyidagi ketma-ketlikda keladi: Sayfiy Buxoriy, Osafiy, Binoyi, Mavlono Olim, Mavlono Hasanshoh, Mavlono Shohiy, Mavlono Abdullo, Darvesh Mashhadiy, Mavlono Xurramiy (xrestomatiyada Xazmiy), Said Quroza, Said Qutb Lakadang, Mavlono Nargis, Mavlono Jannatiy, Mavlono Qobiliy, Mavlono Moniy, Mavlono Baqoyi, Mavlono Mushrifiy, Mavlono Asiliy, Mavlono Kavsariy, Mavlono Qavsiy, Mavlono Malik, Xoja Muso, Mavlono Nodiriy, Mavlono Riyoziy, Mavlono Fig‘oniy (xrestomatiyada Faoniy), Mavlono Bu-Ali, Mavlono Xizriy, Mavlono Fazliy, Mavlono Sho‘xiy, Mavlono Asadulloh, Xoja Mansur, Mavlono Hamidkul.

Ma’lum bo‘ladiki, xrestomatiyada jami 32ta shoir ta’rifi keltirilgan. Navoiy esa uchinchi majlisga o‘ziga zamondosh 175ta shoirni kiritgan edi. Olim har ikki qo‘lyozmadagi farqni, shoirlar ta’rifi tushib qolgani, o‘rin almashgani haqidagi fikrlarini izohda eslatgan. Bizningcha, xrestomatiya hajmi inobatga olinib, bunday qisqartirishg yo‘lidan borilgan.

“Majolis un-nafois”dan so‘ng “Vaqfiya” asaridan parcha keltiriladi. Asar nomi “Vaqfiyat” deb ko‘rsatilib, “*Yana ul erdimkim, ul hazratniig davlatidin bovujudi ulkim, jamin tana ‘umoti jismoiy va murodoti nafsoniyg ‘aki*” deb boshlanuvchi qismidan boshlanadi (5, 162–166).

Quyidagi ruboiyda birgina qo‘sishimcha tushib qolgani kuzatiladi:

*To hirs-u havas xirmani barbod o‘lmas,  
To nafs-u havo qasri baraftod o‘lmas.  
To zulm-u sitam jonig ‘a bedod o‘lmas,  
El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas* (2, 258).

Xrestomatiyada mazkur ruboioyning ikkinchi misrasi “To nafs-u havo qasri aftod o‘lmas” shaklida yozilgan, *aftod* so‘zidan oldin *bar* old qo‘sishchasi tushib qolgan (163). Bu o‘rinda ham mazmun va vazn buzilishi yuzaga keladi. Matnda xatoliklar deyarli ko‘p emas, olim o‘zi tatar millatiga mansub bo‘lgani, turkiy tilni hamda forsiy tilni yaxshi bilgani bois murakkab so‘zlarni ham xatosiz ko‘chirishga harakat qilgan.

“Xamsat ul-mutahayyirin”dan berilgan parcha Sankt-Peterburg xalq kutubxonasiдagi nusxa asosida tayyorlangan (5, 167–179). Asardan olingan parcha nazmiy hamddan boshlanib, “Bu faqiri haqir bu so‘nggi jamoat zumrasida Xiyobon boshida ko‘rgan zamonida muxtasar bitilgan risola sabaqig‘a mumtoz bo‘ldum

(alhamdu lillahi ala attafiq)” tarzida boshlanuvchi hamd va muqaddima qismidan parcha keltirilgan.

“Munshaot”dan olingen parcha ham asarning Sankt-Peterburg xalq kutubxonasidagi nusxasidan olingen. Mazkur asardan muqaddima qismi qoldirilib, birinchi qismdan boshlanadi: “Tog‘-tog‘ niyoz raf‘idin so‘ngra qof-qof ixlos yuzidin ma’ruz ulkim, bu fasldakim, navro‘z nasimining mushkbezlig‘i lola dimog‘in savdoyi va bahor salqinining atrangezlig‘i bulut mizojin havoyi qilibturur” satrlari bilan boshlanadi (5, 180–201):

*Ko ‘k sabzasi ko ‘kka yetkurub bosh,  
Ul ko ‘kta bo ‘lub nujum ushoq tosh,  
Avjiki bitib falak simog ‘in,  
Qoplondin olib qamar tuvog ‘in,  
Ham subh shamomasi sumanso,  
Ham shom nasimi sunbuloso (2, 137).*

Matnda *simog ‘in* va *timog ‘in* so‘zлari xato yozilgan, g‘ayn harfi ustidagi nuqta yo‘q. “Munshaot”ning birinchi qismi va yettinchi qismigacha bo‘lgan matn nasta’liq xatida ko‘chirilgan.

“Mahbub ul-qulub” asari Sankt-Peterburg xalq kutubxonasi va Sankt-Peterburg Osiyo muzeyi nusxasi asosida tayyorlangan. Asardan olingen parcha sakkizinchilasini — “Yasovul guruhi zikrida” qismidan boshlangan (5, 202–225). “Yasog‘liq va qora cherik zikrida” deb boshlanuvchi to‘qqizinchilasini — “To‘qquzunchi fasl yasog‘lig‘ zikrida” deb boshlanadi. So‘ng qolgan qismlar qoldirilib, to‘g‘ri 35-fasl “Qo‘schi va sayyod zikrida”, 36-fasl “Tarbiyat topib, haromnamaklik qilgan navkarlar zikrida” va boshqa ko‘plab hikoyatlar bilan batafsilroq berilgan.

Matn davomidan Zahariddin Muhammad Bobur she’rlari o‘rin olgan. Qizig‘i, Bobur ijodidan so‘ng yana Alisher Navoiyning beshlik dostonlari deb beriladi-yu, biroq asar Navoiyga tegishli emas. “Maxzan ul-asror”dan parcha sarlavhasi bilan “Ey sharaf ichra ikki olamg‘a toj, Yetti falak masnadungga, bir davoj” misralari bilan boshlanuvchi matn berilgan (5, 273–287). Mazkur parcha Nizomiy “Maxzan ul-asror”ining Haydar Xorazmiy tomonidan “Gulshan ul-asror” nomi bilan qilgan she’riy tarjimasidan olingen.

Asardan olingen parcha tugab, yana alohida sahifada Alisher Navoiyning “Xamsa”si, “Maxzan ul-asror” deb nomlanilib, “Hayrat ul-abrор”ning 8-maqolati nasriy sarlavhasi va “Charx to‘quz durjiki zarkor erur, / Javfida yuz ming duri shahvor erur” misralari bilan boshlangan matn berilgan (5, 288–317). Matnning o’sha ikki qo‘lyozma asosida tayyorlanganligi aytildi. Olim bu o‘rinda Haydar Xorazmiy asarini Navoiyniki deb xato beradi, “Hayrat ul-abrор”dan olingen matn esa to‘g‘ri beriladi, lekin bu o‘rinda asar nomi xato yozilgan. Mazkur holatga e’tibor bersak, Haydar Xorazmiy asarining manbasi Imperator kutubxonasidan, Navoiy asarlari esa Sankt-Peterburgdagi ikkita fonddan olingen. Olim Haydar Xorazmiy asarining uslubini Navoiyning “Hayrat ul-abrор” asariga o‘xshatib, yanglishgan ko‘rinadi.

Qo‘lyozmadan ko‘chirilgan matn joriy nashrlarga qiyoslanganda, deyarli xato unchalik ko‘p emas, faqat arab alifbosida nuqtalarning tushib qolishi, o‘rin almashishi bilan bog‘liq ayrim xatolar kuzatiladi, masalan, *mushki totar — mushk topar, ne xabar — bexabar* kabi. Yoki joriy nashrdagi:

*Necha samar sochmoq esa shox ishi,  
Ko‘prak otar tosh anga tergan kishi* (3, 188),

bayti xrestomatiyada “*Necha samar sochmoq esa shox ishi, Ko‘prak otar tosh oni tergan kishi*” shaklida yozilgan (290). Ilkinchi misradagi *anga so‘zi oni* shaklida berilgan. O‘qilganda so‘zlardagi farq sezilmaydi, biroq joriy nashrdagi *anga so‘zi* shoxga qaratilgan, xrestomatiyadagi *oni so‘zi esa* mevani anglatmoqda. “Farhod va Shirin”dan olingen parcha ham “Xisrav va Shirin” deb nomlangan. “Layli va Majnun”dan olingen parcha esa birinchi bobdan — hamd qismidan boshlanadi. “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlaridan parcha berilmagan. Davomidan “Sabot ul-ojizin”dan, Boqirg‘oniy, Mashrab ijodidan parchalar beriladi. Navoiy g‘azallari va ruboilylaridan anchagina namuna berilgan (5, 340-375). She’rlardan namunalar Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasidagi 3ta, xalq kutubxonasi dagi 4ta qo‘lyozma asosida tayyorlangan. G‘azallar joriy nashrlarga qiyoslanganda, ayrim farqlar kuzatiladi. Har qanday holatda ham olimning mazkur g‘azallarni nasta’liq xatida ko‘chirib, ilm-fan ahliga targ‘ib etgani ham o‘z davrida katta ahamiyatga ega ish edi.

**Xulosa.** Umuman, kitobning kattagina qismi Alisher Navoiy ijodiga ajratilgan. Beryozin turkiy adabiyot namunalarini eski o‘zbek yozuvida berish uchun oldin ularni sinchiklab o‘rgangan, qaysi joylaridan parcha olishni reja qilgan. Shu ma’noda Navoiy asarlarining eski o‘zbek yozuvida ko‘chirilib, majmua holatida nashr qilinishi hali O‘zbekistonda toshbosma nashrlar kamyob bir paytda bajarilgan qimmatli ishlardan biri edi. Olim turkiy adabiyot namunalarini o‘zida jamlagan ilk majmuani tuzish bilan o‘zbek adabiyotini o‘rganishga imkoniyat yaratdi. Majmuaga turkiy tilli ijodkorlar, jumladan, Navoiy asarlaridan parcha berish bilan birga Rossiya kutubxonalaridagi manbalarining matniy tuzilishi haqida ma’lumot berdi. Mazkur parchalar o‘sha qo‘lyozmalarini O‘zbekistondagi nusxalari bilan qiyoslashga ham manba vazifasini o‘taydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Мажолис уннафоис. 20 томлик. 13 том. — Тошкент: Фан, 1997. — 300 б.
2. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Маҳбуб улкулуб. Муншоат. Вақфия. 20 томлик. 14 том. — Тошкент: Фан, 1998. — 315 б.
3. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Ҳайрат улаборор. 20 томлик. 7 том. — Тошкент: Фан, 1991. — 422 б.

4. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Бадоев улбидоя. 20 томлик. 1 том. — Тошкент: Фан, 1987. — 689 б.
5. Березин И.Н. Турецкая хрестоматия. Том I. Отделение джагатайское или восточное. — Казань: Типография университета, 1857. — 375 с.
6. Bartelimi. d'Herbelot, *Bibliothèque orientale, ou dictionnaire universel contenant tout ce qui fait connoître les Peuples de l'Orient*, t. III, La Haye, J. Neaulme & N. Van Daalen, 1777. — URL: <https://www.amazon.ae/Biblioth%C3%A8que-Orientale-Dictionnaire-Universel-Traditions/dp/0353819654>
7. Описание турецко-татарских рукописей, хранящихся в библиотеках С.-Петербурга: Ст. [1]-4 / [Испр. должн. э. орд. проф. Казан. ун-та И. Березин]. — Санкт-Петербург, 1846-1850. - 4 отт.; 21. Ст. 2. — 1847.
8. Русский энциклопедический словарь, издаваемый профессором С.-Петербургского университета И. Н. Березиным Санкт-Петербург: тип. т-ва “Общественная польза”, т. I: А. — 1873. — V, XIV, 656 с.
9. Chrestomathie en turk oriental, contenant plusieurs ouvrages de l'émir Ali-Schir, des extraits des Mémoires du sultan Baber, du traité du Miradj, du Tezkiret-el Avlia et du Bakhtiar-nameh, publiés par M. Quatremère. Parij, 1841.
10. Hartmann M. Čaghataisches // Materialien zu einer Geschichte der Sprachen und Literaturen des vorderen Orients. Herausgeben von Martin Hartmann (Berlin). — Berlin: Universitaetsbuchhandlung, 1902. — Heft 2. — 108 s.
11. Herman Vamberi. Cagataische Sprachstudien enthaltend grammatischen Umriss, Chrestomathie und Wörterburch der Cagataischen Sprache, Leipzig, 1867. — 359 p.

### References

1. Alisher Navoij. *Mukammal asarlar tuplami*, 20 tomlik (A collection of excellent works, vol. 13.), Toshkent: Fan, 1997, 300 p.
2. Alisher Navoij. *Mukammal asarlar tuplami*, 20 tomlik (A collection of excellent works, vol. 14.), Toshkent: Fan, 1998, 315 p.
3. Alisher Navoij. *Mukammal asarlar tuplami* (A collection of excellent works, vol. 7.), Toshkent: Fan, 1991, 422 p.
4. Alisher Navoij. *Mukammal asarlar tuplami* (A collection of excellent works, vol. 1.), Toshkent: Fan, 1987, 689 p.
5. Berezin I.N. *Tureckaja hrestomatija* (Turkish anthology, vol.1.), Kazan': Tipografija universiteta, 1857, 375 p.
6. Bartelimi. d'Herbelot, *Bibliothèque orientale, ou dictionnaire universel contenant tout ce qui fait connoître les Peuples de l'Orient*, t. III (Oriental Library, or universal dictionary containing everything that makes the Peoples of the East known, vol. 3), La Haye, 1777, available at: <https://www.amazon.ae/Biblioth%C3%A8que-Orientale-Dictionnaire-Universel-Traditions/dp/0353819654>
7. *Opisanie turecko-tatarskikh rukopisej, hranashhihsja v bibliotekah S. -Peterburga* (7. Description of the Turkish-Tatar

manuscripts stored in the libraries of St. Petersburg), St. Petersburg, 1846-1850. 4 ott.; 21. p. 2, 1847.

8. *Russkij jenciklopedicheskij slovar'*, izdavaemyj professorom S.-Peterburgskago universiteta I. N. Berezinym Sankt-Peterburg (Russian encyclopedic dictionary, published by Professor of St. Petersburg University I. N. Berezin S.), St. Petersburg, 1873, 656 p.

9. *Chrestomathie en turk oriental, contenant plusieurs ouvrages de l'émir Ali-Schir* (Chrestomathie in eastern Turk, containing several works by the emir Ali-Schir), Parij, 1841, 114 p.

10. Hartmann M. *Čaghataisches, Materialien zu einer Geschichte der Sprachen und Literaturen des vorderen Orients* (Čaghataisches// Materials on a history of the languages and literatures of the Near East.), Berlin: Universitaetsbuchhandlung, 1902, 108 p.

11. Herman Vamberi. *Cagataische Sprachstudien enthaltend grammatischen Umriss, Chrestomathie und Worterburch der Cagataischen Sprache* (Cagataic language studies containing grammatical outline, chrestomathy and dictionary of the Cagataic language), Leipzig, 1867, 359 p.